

## O'qituvchilarning pedagogik mahorat tajribasida ta'lim metodlarining samaradorligini oshirish yo'llari

Zeboxon Shuhrat qizi Jaloldinova  
Namangan davlat pedagogika instituti

**Annotasiya:** Ushbu maqolada ta'lim metodlari, jumladan, metod atamasi haqida so'z yuritilgan va bir qator o'quv-metodik usullar, o'quv-metodik usullar, interaktiv usullar, interaktiv ta'lim, o'qitish usullari, og'zaki usullar, o'qitish usullari, amaliy metodlar ro'yxati keltirilgan. Sharqshunoslarning o'qitish metodlari bu o'z navbatida talabalar o'zlashtirish samaradorligini oshirishini ta'kidlab o'tdi.

**Kalit so'zlar:** metod, metodik usul, ta'lim metodlari, o'qituvchi va talabalarning o'zaro hamkorligi, interfaol ta'lim, o'qitish metodi, ko'zgzamali metod, amaliy metod, Farobiy, Beruniy, Xorazmiy, Ibn Sino

## Ways to improve the effectiveness of educational methods in the experience of pedagogical skills of teachers

Zebokhon Shuhrat kizi Jaloldinova  
Namangan State Pedagogical Institute

**Abstract:** This article discusses teaching methods, including the term methodology, and lists a number of teaching methods, teaching methods, interactive methods, interactive teaching, teaching methods, oral methods, teaching methods, and practical methods. Oriental scholars emphasized that teaching methods, in turn, improve the efficiency of students' learning.

**Keywords:** methodology, methodological methodology, teaching methods, cooperation between teachers and students, interfaith teaching, teaching methods, visual methods, practical methods, Pharisees, Beroea, Horazmi, Ibn Sino

Tarbiya metodlari ayni vaqtda o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorlikdagi tartibli faoliyatlari usullari haqida so'z yuritadi. Jumladan "Metod" so'zining ma'nosi yunonchadan olingan bo'lib tarjimai "tadqiqot usuli, maqsadga erishish yo'li" kabi ma'nolarini bildiradi. Filosofiya lug'atida ushbu tushuncha umumiy tarzda "maqsadga erishish usullari" deya sharhlab kelingan.

Ta'lim metodlaridan pedagog foydalanishda muayyan yo'nalishidagi faoliyatning umumlashma loyihasini ishlab chiqarishda namoyon bo'ladigan jarayon. Mazkur loyiha amaliyotga o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining o'zaro birlashuvi,

o'qitish va o'qishga aniq harakatlar amallar yoki usullar majmui sifatida keng targ'ib qilindi. Metod boshqa shakllarda namoyon bo'la olmaydi, buning boisi shuki ta'lim metodi, o'zida, umumiy holda faoliyatning didaktik modelini ifodalaydi Metod, jumladan, ta'lim maqsadiga erishish vositasi ko'rinishida namoyon bo'lsa, boshqa tomondan, boshqariluvchi o'qish faoliyatini amalga oshirish sharti bo'ladi. "Ta'lim metodi" atamasi bilan birga ko'p joylarda "metodik usul" tushunchasi ham foydalaniladi. U ta'lim metodining tarkibiy qismi, uning muhim unsuri, metodni joriy qilishdagi alohida qadam sifatida ta'riflanib kelgan.

Metodik usullarning turlari

- Namoyish (ko'rgazmali obyektiv - tajriba, amaliy va aqliy harakatlarni namoyish etish va h. )

Masalan: o'rganish

- Topshiriq berish

Masalan: yo'l -yo'riq ko'rsatish

Ta'lim metodlari ham asosiy funktsiyalari bajara oladi va ularga quyidagilar kiradi:

- Ta'lim metodlari

1. Motivatsiyali

2. Tashkiliy

3. Rivojlantiruvchi

4. Ta'limiy

5. Tarbiyaviy

Ta'lim metodlarini tanlash quyidagi mezonlarga asoslanib aniqlanadi.

➤ didaktik maqsad asosida

➤ ta'lim mazmuni asosida

➤ o'quvchi-yoshlarning o'quv ko'nikmalarini puxta egallash va rivojlantirish darajasi asosida

➤ o'qituvchining tajribasi va kasbiy tayyorgarligi darajasini ko'rsatish asosida

Metodlarimiz orasiga interfaol metodlar ham kiradi. Interfaol metodlar bu - o'quvchi va o'qituvchining o'zaro birgalikdagi harakatdir. "Interfaol" so'zi ingliz tilidan kelib chiqqan bo'lib, "interact" so'zidan olingan "Inter" bu-o'zaro "act" - harakatdir. Interfaol metodlardan o'qitish o'quvchilaridan yuqori faollikni olingan ma'lumotlarni to'la anglashda ijodiy yondashuv talab qiladi. Interfaol o'qitishning asosiy mezonlari bu - norasmiy munozaralarni o'tkazish, o'quv materiallarini erkin ifodalash, ma'ruzalar sonini kamaytirish, talabalarni tashabbuskorlikka chorlash, jamoaviy izlanuvchanlik talab qiladigan guruh, jamoaviy vazifalarni va yozma ishlarni bajara olishdir.

Interfaol usullardagi darslar o'quvchini ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga fikrini erkin bayon qilishga tashabbuskorlikka guruhlarda

masalalar yechimini topishga, hamkorlikda ish yuritishga, fikrni yozma ravishda bayon eta olishga chorlaydi.

Interfaol metodlarda ish yuritish, an'anaviy usullardan voz kechish degani emas, balki o'zaro faollikda hal etish demakdir. Biz bunga interfaol ta'limni misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

Interfaol ta'limga quyidagilar kiradi:

1. Rolli o'yinlar
2. Loyihali ta'lim
  - a) Kreativ ta'lim
  - b) Evristik ta'lim
  - c) Ta'limda AKT
3. Muammoli ta'lim

Interfaollik bu o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni bunda o'quv-biluv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida dialog shaklida yoki o'quvchi o'qituvchining o'zaro muloqotiga asosan kechadi. Interfaollik - o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, u talaba va o'qituvchi muloqotlarda sodir bo'ladi.

O'quv jarayonining sifati ko'p omillarga bog'liq hisoblanadi va ular orasida o'qitishning usul va metodlari hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Avvamlambor, ular bilimlarning ongli va chuqur o'zlashtirilishiga, talabalarda mustaqillik va ijodiy faollikning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Usul va metod tushunchalari o'zaro bog'liqdir, chunki ularning har biri metod sifatida ham, usul sifatida ham namoyon bo'ladi. Har qanday metoddan biror maqsadga erishish ko'zda tutiladi. Chunki u qandaydir maqsadga qo'yishni, unga erishish bo'yicha faoliyat usulini, ana shu faoliyatni amalga oshirilishda yordam beradigan vositalarni bilishni taqozo etadi. O'qitish metodi o'qituvchi va talabalar nazariy hamda amaliy bilish faoliyatining ta'limiy vazifalarini bajarishga qaratilgan yo'ldir. Unga quyidagi muayyan talablar qo'yilgan:

1. O'quv materialini o'rganishning o'qituvchi tavsiya etgan yo'li fikrlashning dialektik-materialistik usuli, mustaqil qarashlar, irodaviy xususiyatlari va xulqning shakllanishiga olib borilishi kerak. Ana shu talab nuqtai nazaridan metod tarbiyaviy tusda bo'lishi lozim.

2. O'qitishda metodining ilmiy asosi yaqqol va aniq bo'lishi zarur. Shundagina o'qituvchi mazkur metod orqali qanday masalalar qo'yilishi va hal qilinishi mumkinligini qanday masalalarni hal qilib bo'lmasligini ko'ra oladi.

3. O'qitishning tizimliliigi uning samaradorligini belgilab beradi.

4. O'qitish metodining tushunarligi: o'qitishning yo'li o'rganish usuli esa bilimlarni o'zlashtirishning imkoniyatlariga muvofiq bo'lishi lozim.

5. O'qitishning onglilik va faollik zaruriyati nihoyatda jiddiy talabdir.

6. Bilimlarning puxtaligi va asosligi

## 7. O'qitish metodikasi nazariya va amaliy hodisalarning muvofiqligi

O'qitish metodlarini bilish manbalari bo'yicha tasniflash ancha sodda bo'lsa-da, ular maktab amaliyotida keng tarqalgan. Bu belgi bo'yicha metodlar uch guruhga bo'linadi va ular quyidagilardan iborat:

1. Og'zaki metodlar (bilimlarni so'z bilan bayon qilish, suhbat, darslik, ma'lumotnoma va ilmiy adabiyotlar bilan ishlash)

2. Ko'rsatmali metod (rasmlar, namoyish, kuzatishlar )

3. Amaliy metodlar (mashqlar, laboratoriyadagi amaliy ishlar)

Bular ma'lum darajada shartdir, chunki mazkur metodlarning barchasi o'zaro chambarchas bog'langan, ularni doim ham aniq chegaralab bo'lmaydi.

Aytib o'tilganidek, ta'lim metodlari tizimida og'zaki bayon qilish metodlaridan foydalanish muhimdir.

Og'zaki bayon qilish metodlariga quyidagilar kiradi:

1. Hikoya

2. Suhbat

3. Tushuntirish

4. Ma'ruza

Ta'lim sifatini va samaradorligini ta'minlashda ko'rgazmali metodlardan foydalanish ham o'z o'rniga egadir.

• Namoyish

• Tasvir

Amaliy ishlar metodlari talabalar tomonidan o'zlashtiriladi va nazariy bilimlar yordamida ularda amaliy ko'nikmalar va malakalarni hosil qilishda alohida ahamiyatlidir.

Amaliy metodlar talaba va o'qituvchi bilan birgalikda yoki talabalar o'rtasida olib boriladigan jarayon hisoblanib, quyidagilar turlari hisoblanadi:

• Mashq

• Laboratoriya

• Amaliy ishlar

Olimlar o'zlarining o'qitish metodlari haqidagi tushuntirishlarida talabalarga turli xil bilimlar berish bilan birga, mustaqil holda bilim olish yo'llarini ham ko'rsatishadi, ularni bilimlarning zarurligini shubxasiz ishonitirish kerakligini uqtirgan Sharq qomusiy olimlarining asarlarini tashkil qilish, hozirgi terminologiyadan foydalangan holda, mazkur asarlar mualliflarining prinsiplari va o'qitish metodlari bilishning umumiy qonunlariga muvofiqligini aniqlash imkonini beradi. Hamma qomusiy olimlar foydalangan o'qitish metodlarini bir necha guruhlarga ajratish mumkin. Bular: ko'rsatmali tajriba metodlari (Ibn Sino) bilimlarni bayon qilishning savol javobli yo'llari (Abu Rayhon Beruniy, Al-Xorazmiy),

ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodlari, bilimlarni tekshirish metodlari (Farobiy, Al-Xorazmiy va boshqalardan iboratdir).

Muhammad Muso ibn al-Xorazmiy kelsak buyuk mutafakkirimiz o'zgacha bo'lgan ta'lim metodlarini sintezlashtirishga harakat qilgan. Farobiy esa ta'lim-tarbiya ishlarni nazariy yo'llar bilan amalga oshirishga e'tibor bergan. Shuningdek, ta'lim-tarbiyada rag'batlantirish, odatlantirish va vaqti kelganda majburlay olish metodlaridan foydalanish g'oyalarini ilgari surganlar. Abu Rayhon Beruniy fikricha, ta'lim oluvchilarga ta'lim berishda quyidagilarga e'tibor berib o'tish lozimligini ta'kidlab o'tganlar:

- ta'lim oluvchilarni zeriktirmaslik;
- bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o'rgatavermaslik kerak chunki bu dars jadvaliga qo'yilgan talablardan biri hisoblanadi;
- uzviylik va izchillik
- tahlil qilish va taqqoslash
- materialni ko'rgazmali bayon etish

Abu Ali ibn Sino ta'limoti bo'yicha ta'lim oluvchilarni jamoa tarzda o'qitishni ta'kidlaydi. U ta'lim oluvchilarni o'qitishda ularni birdaniga kitob bilan band qilib qo'yimaslik kerakligini ko'p ta'kidlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. J. Hasanboyev, X. A. To'raqulov, I. Sh. Asqarev, N. O'. Usmanov, "Pedagogika", "Noshir", Toshkent – 2018,
2. B. X. Xodjayev, "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti", "Sano-standart" nashriyoti, Toshkent – 2017, 61-bet.
3. B. Mavlonova, N. Vohidova, N. Raxmonqulova "Pedagogika nazariyasi va tarixi", Toshkent – 2010, 55-bet.
4. O'. M. Asqarova. M. Xayitboyev, M. S. Nishonov, "Pedagogika" Toshkent – 2018, 52-bet.
5. X. I. Ibragimov, U. A. Yo'ldashev, X. Bobomirzayev, "Pedagogika tarixi va nazariyasi", "O'zbekiston Faylasuflar Milliy jamiyati" nashriyoti, Toshkent – 2009, 38-bet.
6. "Pedagogika", "O'zbekiston Faylasuflar Milliy jamiyati" nashriyoti, Toshkent – 2010, 68-bet.
7. Jo'Rakabirova, M. X. Q. , & Kamalova, A. O. Q. (2024). Amir Temur va Temuriylar davrida pedagogik fikrlar taraqqiyoti va ta'lim tarbiya masalalarining bugungi kun ijtimoiy faoliyatdagi ahamiyati. *Science and Education*, 5(3), 490-494.
8. Oribboyeva, D. D. , & Botirova, Z. (2024). Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish xususiyatlarining rivojlanishi. *Science and Education*, 5(3), 541-544.

9. Karimov, J. J. O. G. L. , & Kamalova, A. (2024). Yoshlar o'rtasida deviant xulq-atvor profilaktikasi. *Science and Education*, 5(2), 513-519.
10. Ibragimova, D. R. (2024). O'QISHGA BO'LGAN QIZIQISHNI OSHIRISH, O'ZLASHTIRMASLIKNI OLDINI OLUVCHI OMIL SIFATIDA. *Results of National Scientific Research International Journal*, 3(1), 194-200.
11. Ubaydullayeva, M. B. Q. (2023). Iroda va uning shaxs hayotidagi ahamiyati. *Science and Education*, 4(2), 958-961.
12. Абдуллаев, Т. У. Центральная предельная теорема для последовательностей зависимых бернуллиевых случайных величин.